

# Ishlab chiqarish innovatsion loyihalar bilan takomillashtirilmoqda

// 05.11.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ishlab-chiqarish-innovatsion-loyihalar-bilan-takomillashtiri>

## Ishlab chiqarish innovatsion loyihalar bilan takomillashtirilmoqda



[uzkimyosanoat.uz](http://uzkimyosanoat.uz)



@uzkimyosanoat



@uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



uzkimyosanoat



@uzkimyosanoat



Mamlakatimiz Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida "O'zbekimiyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga ilmiy yondashuvlar asosidagi yangi ishlanmalar joriy etilib, innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda.

Birgina o'tgan yilda korxonalarda 19 ta loyiha amalga oshirilgan.

Xususan, ulardan biri O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya instituti bilan akril kislotali nitrilidan akrilamid olishning mikrob biotexnologiyasini joriy etish loyihasidir. Odatda akrilamid "Navoiyazot" Ajda kimyoviy usulda ishlab chiqarilar edi, bu usul texnologik, iqtisodiy va ekologik jihatdan bir qator kamchiliklarga ega. Taklif etilgan usul akrilonitrilning biotransformatsiyasi uchun biokatalizatoridan foydalaniladi va 99-100% sof akrilamid olish imkonini beradi. Ushbu biotexnologiya energiya tejovchi, bir bosqichli va ekologik jihatdan toza hisoblanadi. Bundan tashqari, u kimyoviy usul bilan solishtirganda mahsulot tannarxini 20% dan ortiq kamaytirish imkonini beradi.

Ma'lumot o'rnida ta'kidlash joiz, akrilamid poliakrilamid va akril kislotalarning turli polimerlari va sopolimerlarini keng miqyosda ishlab chiqarish uchun qimmatli monomerdir. Akrilamid polimerlari o'ziga xos foydali xususiyatlarga ega, texnika va texnologiyaning turli sohalarida keng qo'llaniladi, minerallarni boyitish va qayta tiklash jarayonida ruda flotatsiyasi qoldiqlari uchun flokulyantlar sifatida ishlatiladi.

Yana bir loyiha O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti bilan poliakrilamid asosida flokulyantlar olish usuli va texnologiyasini ishlab chiqish loyihasidir. Ma'lumki, har bir sanoat korxonasida ajraladigan oqova suvlarini tozalash dolzarb masala hisoblanadi. Flokulyantlar esa oqova suvlarini tozalab, ulardan ishlab chiqarish jarayonida takroran foydalanish imkoniyatini beradi.

Ta'kidlash o'rinli har ikkala loyiha ham «Navoiyazot» AJ negizida ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**